

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI 5-SINF "ONA TILI" DARSLIGINING  
UMUMIY MAZMUNIY TAHLILI**

*O'rinoyleva Dilfuza Ilhom qizi  
Ismoilova Sevara Obidjon qizi*

*SamDU Kattaqo 'rg'on filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti  
Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabalari*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lif maktablarida 5-sinf o'quvchilari uchun 2020-yilda nashrdan chiqqan "Ona tili" darsligining tahlili berilgan bo'lib, shuningdek, darslikning yutuq va kamchiliklari to'g'risida fikrlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik bo'limlari, kompetensiya, matn va lug'at ustida ishslash, ish qog'ozlari.

Ona tili har bir elatning, millatning, xalqning milliy g'ururi, ko'zgusidir. Ona tilimiz haqida birinchi prezidentimiz I. A. Karimov shunday degan edilar: " Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir". Darhaqiqat, har bir inson o'zining qadim an'analari, qadriyatlarini mujassamlashtirgan tilini sevib ardoqlashi lozim. Shu o'rinda aytish joizki, yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyevning "Davlat tili haqidagi" gi Qonun qabul qilinganini keng nishonlash to'g'risida" gi qarori o'zbek tiliga bo'lган ehtiromning namunasidir.

Xuddi shunday, ona tilimizni o'sib kelayotgan yosh avlod aqliga va qalbiga jo qilishda "Ona tili" darsliklarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu o'rinda 5- sinf "Ona tili" darsligiga alohida to'xtalib, u yuzasidan tahlil olib boramiz.

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida 2020-yil 5- sinf o'quvchilari uchun "Ona tili" va "Adabiyot" darsliklari to'la yangilangan shaklda nashrdan chiqdi. Ushbu darslik ancha takomillashgan, bir qancha yangililar va ijodiy yondashuvlarga boy. Xususan, bolalar tafakkurini charxlovchi, ilmiy salohiyatini yuksaltiruvchi matn va hikoyalar kiritilgan, lug'atlar bilan tanishtiruvchi eslatmalar berib o'tilgan, mashqlar doirasida mahoratli shoirlarning tarbiyaviy va badiiy-g'oyaviy mazmunga ega bo'lgan she'rlari keltirilgan. Quyida darslik mualliflari, hajmi va bo'limlari haqida ma'lumot berib o'tamiz

**Darlikning mualliflari:**

- N. Mahmudov
- A. Sobirov
- Sh. Sattorov
- Sh. Toshmirzayeva

- D. Mannopova

**Darslik hajmi:**

- ✓ Umumiy 136 darsga mo'ljallangan
- ✓ 188 bet

**Darslik bo'limlari:**

1. Kirish
2. Takrorlash
3. Fonetika. Grafika
4. Talaffuz va imlo me'yorlari
5. Leksikologiya
6. Lug'atshunoslik
7. Punktuatsiya
8. Ish qog'ozlari
9. O'quv yili oxirida takrorlash.

**Darslikka qo'yiladigan asosiy talablar:** darslik, eng avvalo, o'quvchi yoshi va fikrlashiga mos tariqasida ishlab chiqilgan bo'lishi, mashq va topshiriqlar aniq hamda uslubiy, imloviy xatolardan holi grammatik mavzularga mos tariqasida berilishi, matnlar va she'rlar to'g'ri tanlanishi va o'quvchining fikrlashini kengaytirishga yo'naltirilishi kerak, shuningdek barcha dars soatlaridagi topshiriqlar o'quvchilarda asosiy 4 til kompetensiyalarini:

- Tinglab tushinish
- O'qib tushunish
- Yozish
- Nutq so'zlash

shakllantirishga qaratilmog'i zarur.

5-sinf "Ona tili" darsligidagi matnlarni tahlilga tortadigan bo'lsak, umumiy 100 dandan ortiq sarlavhali va sarlavhasiz matnlar keltirilgan. Ushbu matnlardan 31 tasi "Saodatga eltuvchi so'zlar", "Pulni chiqindiga tashlamang", "Ismi taqdiriga aylangan inson", "Adiblar xiyobonida", "Baliqlarda aql bormi?", "Davlatimiz madhiyasi" kabi sarlavhalar ostida berilgan. Yuqoridagi kabi sarlavhalar o'quvchi e'tiborini tortishda va matnning tushunarli bo'lishini oshirishda muhim o'rinn tutadi. Darslikda matn hajmiga ko'ra, asosan, minimal (mikromatn) matnlardan foydalilanilgan va bu o'quvchilar yoshiga mos holatda tanlangan. Matn turlaridan tasviriy matn, didaktik va xabar mazmunli matnlardan unumli foydalilanilgan. Ushbu matnlarga misollar:

Tasviriy matnlar: "Orol dengizi", "Ko'priklar", "Najmiddin Kubro"

Didaktik matnlar: "Xasis va uning oltini", "Telefonda gaplashish madaniyati", "Qarg'a va ko'za"

Xabar mazmunli matnlar: “Konstitutsiya nima?”, “Abdula Avloniy”, “Alp Er To’nga”, “Qutb yulduzi”

Xulosa o’rnida darslikning yutuqlari haqida to’xtaladigan bo’lsak, o’quv qo’llanmada berilgan dayarli barcha mashq va topshiriqlar to’g’ri, to’liq va dars mavzusiga mos tariqada berilgan, matnlar ham o’quvchilar yoshiga mo’ljallab to’g’ri tanlangan va ijodiy fikrlash doirasini kengaytirishga hamda o’qib tushunish kompetensiyalarini shakllantirishga yo’naltirilgan. Bundan tashqari, lug’atshunoslikka oid mavzular berilgan bo’lib, ular o’quvchilarda o’z tilidagi so’zlarni o’zlashtirishga, nafaqat o’z tilidagi, balki chet tilidagi yangi so’zlarni, lug’atlarni o’rganishga yaqindan yordam beradi. Shuni ta’kidlab o’tish kerakki, ushbu darslik ba’zi kamchiliklardan holi emas. Bunday kamchiliklardan biri sifatida darslikardagi uyga vazifa sifatida berilgan topshiriqlarni aytishimiz mumkin. Uyda bajarish uchun mo’ljallangan mashqlar faqat yozish kompetensiyasigagina qaratilgan. Topshiriqlarni bajarib kelish bilan birgalikda, ularni og’zaki bayon qilishni qo’shimcha qilish maqsadga muvofiq, chunki bu o’quvchilarda nutq kompetensiyasini oshirishga yaqindan yordam beradi. Shuningdek, barcha uyga vazifalarga “ota-on bilan birgalikda” ruknining qo’shilishi o’quvchilarning ota-onan nazoratida bo’lishini ta’minlashda yaqindan yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. I. A. Karimov. “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch”
2. 5-sinf “Ona tili” darsligi
3. A.G’afurov “ Ona tilini o’qitish prinsiplari va metodlari” T.O’qituvchi. 1992
4. B.Mengliyev, O’.Xolyorov “O’zbek tilida universal qo’llanma”. T- 2013
5. Edu.uz
6. Arxiv.uz